



Xonqa tuman Axborot kutubxona markazi bibliografiya xizmati

“Xonqa elining zabardast shoiri”



Erkin Samandar (1935-2024)

2025-y

Aziz kitobxonlar

Bu bibliografik tavsiya ko'rsatkichida Xorazm vohasi Xonqa elining asl farzandi, insonparvar, ma'rifatparvar, taniqli shoir, yozuvchi, dramaturg, publitsist, O'zbekistonda xizmat ko'rsat jurnalist Erkin Samandar hayoti, ijodi, sherlari, asarlari, dostonlari haqida tanishishingiz mumkin.

Erkin Samandar – yozuvchi, shoir, dramaturg. [O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist](#) (1989).

Biografiyasi

Erkin Samandar 1935-yil 22-martda [Xonqa tumani](#), Navxos qishlog'ida tug'ilgan. 1956—1961-yillarda Xorazm viloyati radioeshittirish qo'mitasi o'zbek eshittirishlari tahririyati muharriri, 1963—1967-yillar, 1990-yilda O'zbekiston Kompartiyasi Xorazm viloyat qo'mitasi mas'ul xodimi, 1967—1969-yillarda O'zbekiston televideniyesi „Yoshlik“ studiyasi bosh muharriri, 1969—1975-yillarda televidiniyaning dasturlar direktori, 1975—1977-illarda adabiy dramatik eshittirishlar bosh muharriri, 1961—1963-yillarda „Xorazm haqiqati“ gazetasida bo'lim mudiri, 1977—1990-yillarda bosh muharrir, 1990—1993-yillarda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari lavozmida faoliyat yuritgan.

Yoshligi

Yoshligi Xorazm viloyati [Xonqa tumanida](#) o'tgan.

Oliy ta'limi

[Xorazm pedagogika instituti](#)ning O'zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil olgan (1952-1957). 1957—1958-yillarda Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanida Beruniy nomli maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan.

Mehnat faoliyati

1. Xorazm viloyati [Qo'shko'pir tumani](#)dagi Beruniy nomli o'rta maktabda o'qituvchi (1957-1958).
2. [Xorazm viloyat radioeshittirish qo'mitasi](#) o'zbek eshittirishlari tahririyati muharriri (1959-1961)
3. [Urganch tumani](#) „Paxtakorlar ovozi“ gazetasining texnik kotibi (1961-1963).
4. O'zbekiston KP Xorazm viloyat qo'mitasida ishlagan (1963-1967; 1990).
5. [O'zFA](#) til va adabiyot insitituti aspiranti (1967).
6. O'zbekiston televideniyesi „Yoshlik“ studiyasining bosh muharriri (1967-1969).
7. Dasturlar direktori (1969—1975)
8. Adabiy-dramatik eshtirishlar dasturlarining bosh muharriri (1975-1977).
9. “Xorazm haqiqati” viloyat gazetasining muharriri (1977-1990).
10. [O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining](#) o'rinbosari (1990—1993).

Davlat mukofotlari

- O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist” unvoni, 1990-yil
- «Do‘stlik orden» 2019-yil

Ijodiy faoliyati

Ilmiy-adabiy asarlari

1. *Birinchi she’riy kitobi – „Amu jilolari“ (1966).*
2. *«Dunyoning yoshligi» (1968).*
3. *«Osmon to‘la nur» (1970).*
4. *«Vafo degan gavhar» (1973).*
5. *«Mening yigitlik vaqtim» (saylanma, 1979).*
6. *«Qabul soatlari» (1980).*
7. *«Sohildagi bolalar» (1982).*
8. *«Yablonya vo dvope» (Moskva, 1982).*
9. *«Bahor oqshomlari» (1984).*
10. *«Идeдrostи rassveta» (1985).*
11. *«Sevgi fasllari» (1987).*
12. *“Bu bog‘ni qaysi bog‘ derlar” (1988).*
13. *«Yurakka yo‘l» (1990).*
14. *«Sevgi kitobi» (1996).*
15. *“Va yana bah” (2010, qizi Sayyora Samandar bilan hammualliflikda).*
16. *«Ko‘ngil yoshligi» (2010).*

Jami 17 ta she’riy majmuasi chop etilgan. 100 dan ortiq qo‘shiqlar muallifidir.

“Osmonning tosh tulpori”, “Oltin sandiq”, “Qo‘shiq izlab”, “Erk sadolari”, “Ishqiy maktublar”, “Samarqandni oshiqlar qurgan” kabi dostonlar muallifidir.

Dramaturgiyaga oid asarlari

1. «Javohir» (musiqali drama, 1984).
2. «Ajodlar qilichi» (tarixiy drama, 1986).
3. “Jaloliddin Manguberdi” („Yot hujra”, pyesa, 1988).
4. “Bashorat»(musiqali drama, 1988).
5. «Arabmuhammad» (tarixiy drama, 1992).
6. «Dilda borim» (musiqali drama, 2012).

Xorazm viloyat musiqali drama teatrida «Dilda borim» (2012) va «Jaloliddin Manguberdi» (2019) spektakllari sahnalashtirilgan.

Ilmiy-publitsistik filmlari

«Avaz O‘tar»

«Madraim Sheroziy»

«Uzoq yo‘l hikmatlari»

- «Ming otliqlar diyori»
- «Ogahiy qo‘lini olgan rais»
- «Xiva»
- «Qum sayli»
- «Taqdir yo‘llari»

Tarixiy asarlari

1. «Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq» (roman, 1989).
2. “Tangri qudug‘i”(roman, birinchi kitob, 1989).
3. “Quduq tubidan sadolar”(roman, ikkinchi kitob, 1989).
4. «Suyanch» (1996).
5. «Pahlavon Mahmud Puryoyvaliy» (2000).
6. «Ming otlilar diyori»(2003).
7. «Sulton Jaloliddin»(roman, 2007).
8. “Quyun yuzlari yoxud Ogahiy” (roman, 2009).
9. “G‘arb qushlari”(roman, qissa va hikoyalar, 2011).

O'YINQAROQ KUN

Xazilga moyildir birinchi aprel,
Bu kuni jilvagar kulib tong otar.
Tong bilan uyg'onar xazilsevar el,
Yolg'on rostga do'nar, aldov asqotar.
Do'st do'stni aldaydi, hamroh hamrohni,
Aldangan o'ksinmas, aldagan tonmas.
Bu kuni qora deb aytsalar oqni,
Oq rang shaydolarin dili og'rimas.
Chunki biladilar, bul bahor kuni
Quvnoq va xazilkash, vafosizroq kun.
Qizlarga qiyos ham etarlar uni
Picha o'yinqaroq bo'lgani uchun...
Nima ham deb bo'lar, elda udum-da,
Eldan chiqib bo'lmas bir qarich nari.
Sokin yaproqlarni o'ynatgan yelday
Tezda o'tib ketar aprel kunlari.
Aprel shamoliga qo'shilib g'ujg'on
Xas kabi yulqinib ketsaydi yolg'on...

Guldek kular olam beozor,
Guldek atir sochadi cho'p ham.

Chunki kelmish elimga bahor,
Chunki kulmish dilimda ko'klam.
Simyog'ochda qushlar chug'-chug'ur,
Bir-biriga so'ylaydi ertak
Chunki bog'da tug'ilmishdir nur,
Yuragimda bo'rtmish gulkurtak.

Yillar o'tar ,
Tosh ham qariydi.
Erib ketar asriy muz, qorlar.
Yer horiydi, daryo horiydi,
Qarib qolar yosh-yosh chinorlar.
Shunday ekan o'ksima ko'nglim,
Tulporini tindirarmi vaqt?
Vaqtdan o'zib,
G'ovlarni yengib,
Omonlikda qarimoq ham baxt.

AMUDARYO

Gohi mayin , sokin-u yuvosh,
Gohi o'jar, tanti va bebosh,
To'lqinlari ufqqa tutash ,
Sevinch daryo , qayg'u daryosan.

Yedirgan ham, ichirgan o'zing,
O'tloq etgan , ko'chirgan o'zing,
Jayhun bo'lib jo'sh urgan o'zing,
Zamonlarga ko'zgu daryosan.

Senga boqsam , oqizar xayol,
Sen kuylaysan, men qolaman lol,
Sensan tutqich bermagan hilol ,
Armon daryo, orzu daryosan.

Loyqa suving to'yib ichganman,
Mavjlaringdek toshib
jo'shganman,
Qo'sh sohiling gullagan chaman ,
Ko'rkam daryo, suluv daryosan.

Qo'llarimda qog'oz va qalam,
Qo'shiq aytgum senga deb men
ham,

Eshitmaysan, chopasan ildam,
Tulpor daryo, ohu daryosa

To bor ekan

Bor ekan to malohatlar
Bo'lur kinu malomatlar.

Bor ekan to zoti ag'yor,

Dilga etgay jarohatlar.

Oshiq ahli nurga tashna,

Kutar vola saxovatlar.

Boshlariga yog'ar bot-bot,

Nur o'rniga nadomatlar.

Saodatdan gapirsa til

Sochib najib sabohatlar.

Yo'llarida bo'lur paydo

Kasofatlar, qabohatlar.

Gar oshiqsan, qaytma yo'ldan,

Qo'psa hamki qiyomatlar.

Asarlari

Samandar, Erkin.

Yurakka yo'l: She'plar va doston. – Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. - 160 b

Erkin Samandar – ko'hna Xorazm vohasining iste'dodli qalam sohibi. Ushbu nazmiy majmuadan muallifning yangi she'rlari va “ Erk sadolari” nomli dostoni o'rin olgan.

Samandar, E.

Jaloliddin Manguberdi: Nasr va nazm: Tarixiy fojealar. –T.: “ Sharq” , 1999. – 272 b.

Ushbu asar tarixiy fojealar haqida yozilgan. Jaloliddin Manguberdi va Chingizxon o'rtasidagi jangler, Jaloliddin o'z onasi va xotinlarini Chingizning qo'lga tushako'rmasin deb qilgan ishlari o'rin olgan.

Samandar, Erkin.

Suyanch

(qissa, esdaliklar, qaydlar)

Xorazm Ma'mun Akademiyasi nashriyoti, 2000

Inson har qancha kuchli bo'lmasin, suyanchga muhtoj. Ko'ngli bir madad istaydi, ruhi bir tayanch. Olloh nomini diliga jo etib, sajdaga bosh qo'yishi shundan, qadamjolarni tavob aylashi shundan. Ko'p asrlardan beri odamlar madad istab, kuch olib kelayotgan daholardan biri Pahlavon Mahmud Piryorvaliy hazratlaridir. Ushbu kitob ul piri murshid hayotining ayrim nurli qirralari haqida hikoya etadi.

Shuningdek, Xorazmda o'tgan boshqa buyik siymolarning umr hikmatlari, tariximiz zarvaraqlari, muallifning dunyo va inson, kecha va bugungi kun haqidagi o'ylari, o'zi bosib o'tgan yo'l xotiralari, estaliklari bilan tanishasiz.

Samandar, Erkin

G'ayb qushlari: Roman, qissa, va hikoyalar. – T.: “Sharq” , 2009 – 368 b.

Erkin Samandarning ushbu to'plamiga “Daryosini yo'qotgan qirg'oq” romanining qayta ishlangan yangi nusxasi, “Pahlavon Mahmud Piryorvaliy” qissasi va hikoyalari kiritilgan. Adib asarlarini birlashtiruvchi asosiy g'oyani inson ozodligining ko'ngil uyg'oqligiga bog'liqligi, jamiyatdagi ko'p fojialarning tagida ma'naviy qashshoqlik ekologiyasi yotganligi, erkin odamgina shod bo'la olishi, el- yurt, Vatan muhofasi iymon belgisi ekanligi hamda zamondoshlarimizning tozarish yo'lidagi kechinmalari tashkil etadi. Turli mavzu va janrlardagi asar ishtirokchilarini bitta narsa odamlardagi mehr va mehrsizlik iplari uzviy bog'lab turadi. Kitobda yurtdoshlarimiz, ularning bir-biriga o'hshamagan taqdirlari betakror badiiy obrazlarda o'z ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [„ERKIN SAMANDAR \(1935\)“](#) (2013-yil 3-noyabr).
2. "O'zbek adiblari" (S. Mirvaliyev, R. Shokirova). Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2016 yil..
3. Saylanma, T., 1989; Sulton Jaloliddin [Roman], T., 2005..

Mundarija:

Hayoti.....	3
Ijodiy faoliyati.....	4
She'rlari.....	5
Asarlari.....	7
Foydalanilgan adabiyotlar.....	8

~ 10 ~